XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 30 - dekabr VI-68-231-7-104-K/22 Toyloq tuman hokimligi

Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Toyloq tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-47-112-7-104-K/21-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasining 02-RA 1/1-1535-sonli ko‘rsatmasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozilgan qo‘shma axborotini inobatga olib, xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining “Toyloq tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021-yil 30-dekabrdagi VI-47-112-7-104-K/21-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida hamda Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining “Toyloq tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021-yil 30-dekabrdagi VI-47-112-7-104-K/21-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritilsin:

matn quyidagi tahrirda bayon etilsin:

2022-yil uchun Toyloq tumanining tuman budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami

JAMI		**121 329 720**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	11 020 000.0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	25 417 125.0
3	Aksiz solig‘i jami	3 035 260.0
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i	*3 035 260.0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 193 700.0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	6 717 900.0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	7 449 200.0
7	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 479 000.0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 207 000.0
9	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	10 180 000.0
10	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 162 700.0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	34 900.0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 913 935.0
13	Yig‘imlar	2 095 000.0
14	Alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo	12 650 000.0
15	Mobil aloqa xizmati	7 207 000.0
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	13 567 000.0

matn quyidagi tahrirda bayon etilsin:

2022-yil uchun Toyloq tumanining tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	**Ko‘rsatkichlar**	**miqdori**
Xarajatlar miqdori Jami		**225 341 392.9**
1	Xalq ta’limi bo‘limi	11 125 016.0
2	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	26 213 512.2
3	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	72 730 095.6
4	Madaniyat bo‘limi	5 018 628.1
5	Sportni rivojlantirish bo‘limi	5 303 771.7
6	Aholi bandligiga kumaklashish markazi	771 665.0
7	Tuman hokimligi	84 492 236.3

8	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 188 119.6
9	Tuman hokimligi moliya bo‘limi	1 539 955
10	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Toyloq tumanidagi muassasalar	512 553.9
11	Tuman Irrigasiya bo‘limi	1 259 778.7
12	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 728 149.0
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	184 565.0
14	Tuman Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo‘limi	4 473 439.0
15	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Toyloq tuman bo‘limi	3 993 547.0
16	Tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi	1 653 717.0
17	Boshqa xarajatlar	3 154 244.0

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Sharipov) tuman mahalliy budjetining 2022-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengashi Raisi **B.Babonazarov**